

## Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra,

2017 yilning 1 oktyabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 25766 tani tashkil qilib, shundan 25372 tasi yoki 98,5 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 5565 ta (21,6 foizi), sanoat 5302 (20,6 foizi), qurilish 2075 ta (8,1 foizi), axborot va aloqa 1045 ta (4,1 foizi), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1381 ta (5,4 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.


2017 yilning 1 oktyabr holatiga ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan foizda	birlik	yakunga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>25 766</b>	<b>100,0</b>	<b>25 372</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:				
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 381	5,4	1 359	5,4
sanoat	5 302	20,6	5 252	20,7
qurilish	2 075	8,1	2 052	8,1
savdo	5 565	21,6	5 467	21,5
tashish va saqlash	1 032	4,0	1 016	4,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 135	4,4	1 122	4,4
axborot va aloqa	1 045	4,1	1 030	4,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	595	2,3	587	2,3
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7 636	29,6	7 487	29,5

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 86,1 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar, shundan 36,9 foizi xususiy korxonalar, 0,8 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 0,2 foizi aktsiyadorlik jamiyatlari, 48,2 foizi boshqa korxonalar ulushiga to'g'ri keldi.

Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar-yuridik shaxslar mulkchilik shakllari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

1 oktyabr holatiga,  
umumiy soniga nisbatan foiz hisobida



2017 yil yanvar-sentyabrda jami 2883 ta yangi korxon va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'ektlari - 2687 ta). Ularning asosiy qismi Farg'ona shahar (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxon va tashkilotlarning (20,2 foizi), Qo'qon shahar (13,9 foiz), Marg'ilon shahar (10,4 foiz), Buvayda tumani (5,9 foiz), Quva tumani (5,9 foiz), Uchko'prik (4,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxon va tashkilotlarning 32,1 foizi sanoat, 22,7 foizi savdo va 7,8 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohaslariga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida 980 ta korxon va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 192 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 19,6 foizi) ixtiyoriy tugatilish tartibini qo'llash orqali tugatilgan.

2017 yil yanvar-sentyabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishda hamda aholi bandligi bo'yicha davlat va nodavlat sektorlarining nisbati quyidagicha ifodalanadi:

umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida



2018-03-12 12:39:15